

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA
SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNVERSITETI
NUKUS FILIALI
GUMANITAR FANLAR KAFEDRASI**

**AGRONOMIYA VA QXM FAKULTETI
AGROTUPROQSHUNOSLIK VA AGROXIMIYO
TALIM YUNALISHI**

**MILLIY G'OYA :
ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR**
fani buyicha

REFERAT

**MAVZU: GLABALLASHUV SHAROITIDA MILLIY G'OYAGA
EHTIYOJNING ORTISHI**

Bajardi: t.i.k. Tlewbergenova N
Tekshirdi: Nurimbetov N

NUKUS 2015

GLABALLASHUV SHAROITIDA MILLIY G"OYAGA EHTIYOJNING ORTISHI

REJA

- 1. Glaballashuv va mafkuraviy jarayon tushunchalari va ularni mohiyati.**
- 2. Globallashuv va xozirgi dunyoning mafkuraviy manzarasi.**
- 3. Glaballashuv va xozirgi dunyoning mafkuraviy manzarasi.**

Glaballashuv (lotoncha, globus-sar, yer sayyorasi)-XX asrning ikkinchi yarmi XXI asr boshida jahon taraqqiyotida shakllangan yangi umumsayyoraviy tartibotlar, davlatlar va kishilar o'rtasidagi o'zaro aloqalarning kengayishi va murakkablashishi, dunyo miqyosida axborot makani, kapital, tavor hamda ishchi kuchi bozorida integratsiyala shuv, atrof-muhitga texnagen tasirning kuchayishi ommaviy madniyat namunalarining keng tarqalishi, axborot-mafkuraviy va diniy ekstrimestik xurujlar xavfning ortib bori shini ifoda etuvchi tushunchadir."Glaballashuv" atamasi dastlab Amerikalik olim T.Levitning 1983 yili "Garvard biznesrevyu" jurnalida chop etilgan maqolasida tilga olingan edi (u yirik transmilliy karparatsiyalar ishlab chiqaradigan turli-tuman mahsulot bozorlarining birlashuv jarayonini Glaballashuv deb atagan).1985 yilda esa taniqli Amerikalik olim R.Robertson "Globalization" iborasini ilmiy muomilaga kiritib, bu tushunchani "odamlar ongida sayyoramizning torayishi hamda dunyoning yahlit tarzda anglanishi"ni aks ettirib, "dunyoning birlashuvi va kishilar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni kuchayishini" ifoda etadigan jarayon sifatida talqin etadi. Mazkur atamaning mazmun-mohiyati xususida bahs-munozara hamon davom etayotgan hamda bu borada yagona umumiy qarash shakllanmagan, yahlit kansepsiya yaratilmagan bo'lsada, gumanitar limning turli sohalarida, chunonchi, ijtimoiy fanlarda ushbu jarayonning o'ziga xos xususiyatlari, namayon bo'lish shakllari har tamonlama o'rganilmoqda. Jumladan, iqtisodiyot fanida diqqat etibor asosan moliyavi Glaballashuv, global transmilliy karparatsiyalarning (TMK) shakllanishi, iqtisodiyotning min taqiylashuvi, jaxon miqyosida savdoning jadallashuvi kabi masalalarga qaratilgan.

Tarixiy asarlarda esa Glaballashuv jarayoni insonning ko'pasrlik taraqqiyot bosqichlaridan biri sifatida talqin etiladi. Siyosatda transmilliylashuv jarayonining tezlashuvi, dunyo mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning kuchayishi, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar ishtiroqida yangi umumsayyoraviy tartibning shakllanishini tadqiq etilmoqda.¹ Sotsiologiya sohasi mutahasislari madaniyatning universalla shuvi tasirida turli mamlakat va mintaqa halqlari turmush tarzining

1.Nazarov.Q. Manaviyat:asosiy tushunchalar izohli lug'ati.T."G'afur G'ulom"2009 y.119 bet.

yaqinlashuvi hamda birhillashuvi tasdiqlaydigan dalillarni izlamoqda. Ba'zi faylasuflar XXI asrda dunyoda yagona axloq umumiy ma'naviyat, global madaniyat qaror topishini bashorat qilmoq dalil. Boshqalari esa, Kantning yahlit abadi dunyo hamda umumdunyoviy hukumat g'oyasiga tayanib, turli millat va halqlar qadriyatlarining uyg'nlashuvini asoslashga intilmoqdalar. Keyingi yillarda ilmiy adabiyotlarda turli fan yutuqlarini uyg'unlashtirish asosida hamda insoniyatni bilashuvi, ijtimoiy voqealikning univ. sallasuvi vakishilar dunyoqarashining kengayishi tendensiyalari ga tayanib, Global lashuv jarayonining umumiy nazariyasini yaratish borasida intilish lar (masalan: A. Vallersteynning tizimli yondashuvi va xakozalar) ko'zga tashlanmoq da. Shu bilan birgalikda Glaballashuv jarayonining turli davlatlar va xalqlarning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy taraqqiyotga salbiy tasirini ilmiy tadqiq etishga etibor kuchayib bormoqda. Prezidentimizning "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asarida Glaballashuv mazmun mohiyati quyidagicha tavsiflanadi: "Glaballashuv fenomeni ha qiqida gapirganda, bu atama bugungi kunda ilmiy-falsafiy, hayotiy tushuncha sifatida keng manoni anglatishini takidlash lozim. Umumiy nuqtayi nazardan qaraganda, bu jarayon mutlaqo yangicha ma'no-mazmundagi xo'ja lik, ijtimoiy siyosiy, tabiiy-biolo gik muhitning shakllanishini va shu bilan birga, mavjud milliy mintaqaviy muammo larning jaxon miqyosidagi muamolarga aylanib borishini ifoda etmoqda. ... Har bir ijtimoiy hodisaning ijoboy va sakbiy tamoni bo'lgani singari, glaballashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Hozirgi paytda uning g'oyat o'tkir va keng qamrovli tasirini deyarli barcha sohalarda ko'rish, xis etish mumkin. Ayniqsa, davlatlar va halqlar o'rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, xorijiy investitsiyalar, capital va tavarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklar vujudga kelishi, ko'plab yangi ish o'rinlarining yaratilishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, turli qadriyat larning umuminsoniy negizda uyg'unlashuvi, sivilizatsiyalar aro muloqotning yangi cha sifat kasb etishi, ekologik ofatlar paytida o'zaro yordam ko'rsatish imkoniyatlarining ortishi-

tabiiyki,bularning barcha siga glaballashuv tufayli erishilmoqda”.² Mazkur xulosalarga tayangan holda Glabal lashuv jarayonining quyidagi umumiy jihatlariga etibor qara tish mumkin: a)Glaballa shuv insoniyat tamadduni rivojining ichki extiyojlarini ifoda etadigan obyektiv, tabiiy-tarixiy jarayon; b)Glaballashuv ijtimoiy jarayon kengayishi va murakkablashuvi oqibatida sayyoramiz miqyosida iqtisodiyot, texnika va texnologiya, axborot-kommunikatsiya, siyosat, huquq, boshqa ruv va boshqa sohalaridagi integratsiyalashuv jarayonining kuchayishi oqibatida vujudga kelgan, o’ziga xos tuzilmaga tayangan holda faoliyat yuritadigan murakkab tizim; v) Glaballashuv jarayoning toboro keng ko’lamda namoyon bo’lishi jamiyat hayoti, kishilar turmush tarzi va mentalitetiga (yangi extiyojning kommunikatsiyasi shart-sharoitlari va shakllari, qadriyatlarining paydo bo’lishi, ommaviy mada niyat qadriyatlarini singdirish orqali) jiddiy ta’sir ko’rsatadi; d) Glaballashuvning zamona viy tamaddun rivojining yuqori bosqichi sifatida madaniyat bilan o’ziga xos munosa batlar tizimi shakllanib bormoqda (bir tamondan, madaniy faoliyatning yangi shakl va usullari, uning botiniy mohiyatida tub o’zgarishlar ro’y bersa, ikkinchi tamonda, madaniyatning glaballashuv jarayoniga ta’siri kuchayadi). Hozirgi davrda O’zbekis tonda, bir tamondan, glaballashuv jarayonining avzalliklaridan (jumladan, iqtisodiyot ning barcha sohalarini zamonaviy texnika va texnologiyalar asosida jihozlash, investitsiyalarni keng jalb etish, jaxon bozoriga integratsiyalashuv va xakozo) oqilona foydalanish, ikkinchi tamondan, uning salbiy ta’sirini (dunyoning yetakchi davlatlari va transmilliy korporatsiyalarning tabiiy zahiralarga egalik qilishiga intilishi, demaq ratiyani siljitish strategiyasining amalga oshirilishi, ommaviy madaniyat namunalari ning keng tarqalishi, terrorizm va ekstremizmning glabal tus olishi va xakozo) barta raf etish borasida pishiq-puxta o’ylangan izchil siyosat olib borilmoqda.

I. Karimov takidlaganidek, ”Hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta’sir o’tkazish ning nihoyatda o’tkir quroliga aylanib, har-xil siyosiy kuchlar va markazlarning man faatlariga xizmat qilayotganini sog’lom fikrlaydigan har qanda odam, albatda,

1. Karimov. I. A. Yuksak ma’naviyat-yenglmas kuch. T. ”Ma’naviyat” 2008 y. 111-112 betlar.

kuzati shi muqarrar”.³ Shu bois glaballashuv jarayonining ijobiy jihatlarini etiborga olgan holda uning g’oyaviy mafkuraviy ta’siridan ogoh bo’lish,ayniqsa, yoshlarimizni bun day xurujlardan asrab avaylash g’oyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi dunyoda Glaballashuv jarayoni ta’siridan holi bo’lgan biron-bir sohani toppish qiyin.Bu bir tamonda,turli mamlakatlar halqlar hayoti rivojining bir-biri bilan bog’liq jihatlar taqoza etadigan obektiv jarayon.Ikkinchidan uning ayrim noholis “Maqsadli mo’ljallari” ham yo’q emas.Buni ayrim kuchlar siyosiy guruhlarning o’z yashirin maqsadlari yo’lida glaballashuvdan vosita sifatida foydalanish,ayniqsa in sonlar ongi va qalbiga ta’sir ko’rsatish orqali,ularning dunyoqarashlarini,ishonch va etiqodlarini o’zgartirib,o’z tasir doiralariga olishdagi urinishlarida kuzatish mumkin.

O’zbekiston Prizidenti I.A.Karimov takidlaganidek,”Insoniyat sivilizatsiyasi ning rivojlanish tarixi,ayniqsa har jihatdan bir-biriga bog’liq bo’lib qolgan hozirgi dunyo sharoitida bizni o’rab turgan,hech kim o’z holicha yashay olmaydigan,hamma narsa ham bizga bog’liq bo’lavermaydigan,yuksak maqsadlarga intilish yo’lidagi intilishla rimizga jiddiy havf hatar solib turgan bu dunyoning o’zi nimalardan iborat ekanligini chuqur tushunib olish juda muhim”.⁴

Bu hamma vaqtda ham shunday bo’lib qoladimi?Yoki u o’zgarib yangilanib bora dimi?Bunday sharoitda insonlarning dunyoqarashi,ishonch etiqod munosabatlari shunday bo’ladi?Xalq tayanadigan milliy madaniy merosga,qadriyatlarga bo’lgan munosabat,ishonch va etiqod qanday bo’lishi kerak,degan savollar ko’pchilikni o’ylantiradi.

Glaballashuv insonlar xalqlar ijtimoiy hayoti sohalariga,dunyoqarash,tafakkuri ga,davr va zamonga,umumbashariy va milliy-madaniy qadriyatlarga ham ta’sir ko’rsa tishi mumkin.Bunday ta’sirning xalqlar hayotidagi o’zgarishlarga mos “me’yor” dara jasi bilan,aksincha,uning buzulish

2. Karimov.I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch.T.”Ma’naviyat” 2008 y.113 bet.

2. 1.Karimov.I.A. Shariyatimiz mafkurasi xalqni xalq,millatni millat qurishga hizmat etsin.T. “O’zbekiston” 1998 y.15 bet.

xolatini farqlash va hisobga olish zarur. Ayniqsa, axborot ko'лами tez suratlar bilan oshib, mustaqillik tufayli odamlar yangi-yangi axborot maydoniga kirib borayotgan davrda muayyan millat va xalqqa xos bo'lgan fikrlar, qarashlar, dunyoni anglash va unga munosabat ham o'ziga xos ko'rinishda namoyon bo'ladi. Hatto glaballashuv sharoitida, uning talab va qonuniyatlarini hisobga

olmasdan, Vatan oldidagi fuqarolik burchi va ma'suliyatini sezmasdan, "oqim"ga tez

da moslashib ketayotgan, ishonch va etiqodlarini tezda o'zgartirishga moyil bo'lganlar

ham topilmoqda. Bu glaballashuv jarayonining ta'sir kuchini oshirib, ma'suliyat hissi

ning bir qadar pasayishiga sabab bo'layotir.

Umumbashariy qadriyatlar-xalqlarning dunyoni anglashdagi umumiy maqsadlari, qarashlari fikr va intilishlarining o'zaro mushtarak nuqtalaridir. Xalqning o'z ma'na viy-madaniy negizlariga, xususiyatlariga tayanmaydigan dunyoqarash esa umumbashariyat mulkiga aylana olmaydi. Shu oddiy haqiqat orqali glaballashuv jarayonidagi milliy va umumbashariy mohiyatni anglash mumkin.

Xo'sh, bugungi insonlarning dunyoqarashi, ishonch va etiqodi milliy-ma'naviy qadriyatlarga nechog'li uyg'un?

Inson dunyoning doimo sodda, tasavvur qilish, isroq etish oson bo'lgan jihatlari ko'proq aglaydi. Unga ko'proq intiladi. Shuning uchun glaballashuv sharoitida odamlarning hamma ham tezda bilib ololmaydigan, anglash, tasavvur qilish qiyin bo'lgan (substansiya) mohiyatni anglab yetishiga yordam berish alohida ahamiyatga ega. Shu ma'noda, insonga ma'naviy mohiyatni anglash, uning mohiyatini tushunib yetishga qaraganda, "moddiy" olamni anglash osonroq. U shu asosda umumiy, lekin bir tamonla ma'xulosaga ham keladi. Go'yo, uning nazarida hamma narsa faqat iqtisod bilan bog'liq. Go'yo iqtisodi yaxshi (to'q, faravon) bo'lsa, qolgan hamma muammo o'z o'zidan hal bo'lib ketaveradi, deb o'ylaydi. To'g'ri, bir tamonlama qaraganda shunday. Lekin odamning iqtisodiy xayoti o'z-o'zidan yahshi bo'lib qolmaydiku? Agar iqtisodiy faravonlik qanday

omillarga bog'liq, degan savollarni o'rtaga tashlasak, mohi yatga bir qadar yaqinlashamiz. Binobarin, iqtisodiy o'zgarishlar ham insonning dunyo qarashi, ma'naviy salohiyati, bilimi malakasi, aql-idroqi, intilishlari bilan bog'liq.

Demak, erkin, faravon hayot-bu natija, unga inson salohiyatisiz erishib bo'lmaydi.

Insonning salohiyati esa uning o'ziga, ya'ni ma'naviy olamiga bog'liq. Inson o'z salo

hiyatini qanchalik to'g'ri yo'naltira bilsa va undan ezgulik yo'lida foydalansagina chi

nakam erkin faravon hayotga erishmog'i mumkin.

Glaballashuv jarayoni ijtimoiy xayot sohalariga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Bu

ta'sir qaysi sohalarga, qay darajada bo'lishini bilish muhim. bu avvalo insonlarning o'zgarishlar sharoitida milliy-ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan munosabatiga, ishonch va etiqodiga bog'liq; 2. Ayrim insonlar bu o'zgarishlarni shunchaki qabul qilishi mumkin. Boshqacha aytganda global tasirlarga hech qanday javob bermasdan "shunchaki uning ta'siriga tushadi" va "qabul qiladi"; 3. Ayrim insonlar esa o'zidagi ma'naviy, mafkuraviy "immunitet"ning u o'zgarishlarning salbiy jihatlariga qarshi qo'yadi. Shu bois glaballashuv jarayoni unga sezilarli ta'sir ko'rsata olmaydi; 4. Shunday odamlar, xalqlar, millatlar borki, ular hech qachon glaballashuv ta'siriga tushmaydilar. Sababi ular o'zligini shu darajada anglab yetganki, tashqi ta'sirlarning har qanday darajasiga o'zlarining ma'naviy salohiyatlari bilan javob bera oladilar. O'zligini saqlab qolish, milliy ma'naviy qadriyatlarga tayangan holda o'ziga xos va mos rivojlanish yo'liga ega bo'lish, ularning hayotiy falsafasiga aylanib, ishonch va etiqodi darajasiga ko'tarilgan. Bu glaballashuv sharoitidagi umumiy qonuniyatdir.

Glaballashuv jarayoni o'tmishda ham turli xalqlar xayotiga muayyan o'zgarishlar olib kirgan. Hayot tarzida urf odatlari va ananalarida, ong-tafakkuri va dunyoqarashlari da muayyan o'zgarishlar yasagan. Milliy-ma'naviy qadriyatlarimiz bugun ham odamlar qarshlari bilan bog'liq holda yangilanib

boryapti. Bugungi globalashuv jara yonini dunyoqarash bilan birga ishonch va etiqod munosabatini ko'proq dolzarb qilib qo'ymoqda. Turli xalqlar, millatlar hayotida o'ziga xos hayotiy delimma paydo bo'lmoqda.⁵

XXI asr boshlariga kelib dunyo mamlakatlari o'rtasida ta'sir shu qadar kucha yib ketdiki, bu jarayondan to'la ixotalanib olgan birorta ham davlat yo'q. Globalashuv ning turli mamlakatlarga o'tkazayotgan ta'siri turlicha. Bu hol dunyo mamlakatlari iqtisodiy, axborot, ma'naviy salohiyatlari va siyosati qanday ekani bilan bog'liq. Yer kurrasining fan texnika yutuqlari tufayli insoniyat ixtiyoridagi huddi bir butun sharga, kurraga aylanishini tushuntirish uchun ishlatiladi. Insoniyat taraqqiyoti ayni vaqtda ish lab chiqarish kuchlarining rivojlanish jarayondan. Bujarayon asrdan asrga, ming yil lar davom etgan...

Globalashuvning mamlakatlar iqtisodiy siyosati va ma'naviyatiga o'tkazishi mumkin bo'lgan ijobiy va salbiy ta'siri xususida Xindistonning mashxur davlat arbo bi Mahatma Gandining quyidagi so'zlarida yaxshi ifodalangan: "Men uyumning dar vozasini mahkam berkitib o'tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga ochilgan eshik va derazalarimdan kirayongan havo dovul bo'lib uyimni ag'dar-to'ntar qilib tashlashi, o'zimni esa yiqitib yuborishini istamayman".

Mafkuraviy jarayonlarning globalashuvi yer sharini qamrab olish, dunyo miq yosidagi, umumiy-g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlarining kengayishi oqibatida unga yer yuzining barcha mintaqalari tortilganligini, mafkuraviy kurash umumba shariy miqyos kasb etganini ifodalovchi tushuncha. Bugungi dunyoda mislsiz ilmiy kashfiyotlar, ulkan texnikaviy imkoniyatlar, universal texnologiyalar, axborot tarqatish ning globalashuvi, yani ularning butun kurrai zaminni qamrab olish jarayoni shiddat bilan bormoqda. Masalan, internet tizimi orqali axborot almashuv, bino barin, g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlari ham taboro kengaymoqda.

Aslida axborot sohasidagi globalashuv insoniyat uchun, dunyoning barcha hudud laridagi odamlarning o'zaro muloqati uchun, ilm-fan va madaniy boyliklarni

1. Ergashev. I. Globalashuv: dunyoqarash, ishonch va etiqod munosabati. Fidokor. 2004 y. 11 noyabr.

o'zgartirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratadigan jarayondir.

Mafkuraviy jarayonda g'oyaviy qarashlar tizimining shakllanishi, rivojlanishi va tarqalishi bilan bog'liq bosqichlarning uzviy birligi, mafkuraviy jarayonlarning globallashuvida bir-biridan farq qiladigan ikki yo'nalish, tendensiya mavjud:

1. Insoniyat sivilizatsiyasi davrida erishgan har qanday moddiy va ma'naviy qadriyatlarining umuminsoniy jihatlari tarixiy makon doirasidan chiqib baynalmillatlashib, universallashtirib bormoqda. Boshqacha aytganda milliy va umuminsoniy tamoyillar ning integratsiyalashuv jarayoni kuchmoqda.

2. Millatlar va davlatlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy rivojlani shidagi beqarorlik, ular manfaatlaridagi o'ziga xoslikni mutloqlashtirish insoniyatga, shu jumladan, o'z millatining kelajagiga xavf tug'diradigan salbiy hodisalarning maf kuralashgan globallashuviga olib kelmoqda. Bu xalqaro terrorizm, ekstremizm, fundamentalizm va norkabiznes hodisalarida namayon bo'lmoqda. Biron bir hudud yoki mamlakatda paydo bo'layotgan g'oyalar tez fursatda butun jahonga yoyilmoqda. Natijada, odamzot ma'lum bir davlatlar va siyosiy kuchlarning bisimini sezib yashamoqda.

Turli g'oyaviy kuchlarning mafkuraviy jarayondagi in'ikosi – Bu jarayonning muhim xususiyatlaridan biri – turli mamlakatlarni mafkuraviy zabt etish g'oyat katta iqtisodiy mafaatlari bilan qo'shib ketganidir. Mafkuraviy globallashuv saviyasi past audio va videokassetalar, axloqsizlik, tubanlik va yovuzlikni targ'ib qiladigan “san'at asarlari”ning ham keng tarqalishiga sabab bo'lmoqda. G'oyaviy-mafkuraviy tazyiq va tajovuzlarning oldini olish uchun esa har bir millat, davlat o'zining g'oyaviy-mafkuraviy daxlsizligini taminlaydigan chora-tadbirlarni qo'shishi zarur bo'lmoqda.

Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati va ma'naviyati ham Sharq va G'arbni tutashtirgan karvon yo'llari joylashganligi sababli ham Sharq ham G'arb madaniyatidan bahramad bo'lgan. Natijada har bir xalq o'zlari uchun ana shu madaniyatning ijobiy ta'monlarini o'zlashtirgan, ularga ijobiy yondashib yangi cho'qqilarga ko'targan. Masalan, Abu Rayxon Beruniy

Xitoy, Hindiston, Yunoniston va Rim falsafasi, tabiiy fanlarni chuqur o'zlashtirgan edi. Farobiy ham o'nlab tillarni bilgan va o'nlab xalqlar madaniyati va ma'naviyatini chuqur o'rgangan. Yaxshi, ijobiy g'oyalar o'rganilgan, ijodiy rivojlantirilgan. Lekin ular negizida yot g'oyalar ham kirib qolgan. Shunday g'oyalar borki, ular ochiq chehra bilan eshigimizni taqillatib kirib keladi. Shunday g'oyalar borki ular "o'g'ri" kabi tuynuk qidiradi.

Eshik qoqib keladigan g'oyalar milliy ma'naviyatni boyitadi, rivojlantiradi. XX asr boshlaridagi o'zbek madaniyati va ma'naviyati hamda uning asr oxiridagi holati o'rtasida jiddiy tafovut bor. Bu tafovutni adabiyot, san'at, fan, xatto oddiy yurish-turish va kiyim-kechak, turmush sohalarida ham kuzatish mumkin. XX asr boshida o'zbek adabiyotida draturgiya janri rivojlangan edi. M. Behbudiy, Fitrat, M. Abdurashidxonov singari marifatparvarlarning say-harakatlari tufayli dramaturguya shakllandi...

Insonlar o'z taraqqiyotining bugungi bosqichida mutloq yangi, soddaroq qilib aytganda, ilgari kuzatilmagan, shu bilan birga chuqur va keng qamrovli o'zgarishlar davrini – davlatlar va halqlarni ochiqlik asosidagi bir birga yaqinlashuv jarayonini boshdan kechirmoqda. O'z navbatida bunday o'zgarishlar dunyoning yetakchi olimlari tomonidan turlicha talqin qilinayotgan, fundamental o'zgarishlarga boy bo'lgan mazkur davrni tavsiflovchi turli qarashlar ilgari surilayotgan bejiz emasligini alohida ta'kidlash joiz. Bazi olimlar bu jarayonni infarmatsion jamiyatning shakllanishi sifa tida talqin qilsalar, boshqa bir gurux oqimlar neomodernizm, deya baholamoqdalar.

Lekin aksariyat olimlar etiborini tortayotgan, ayniqsa, jiddiy tortushuv va tahlil larga sabab bo'layotgan boshqa bir yondashuv borki, unga ko'ra dunyo taraqqiyoti ning ana shu bosqichi o'z qamrovini tobora kengaytirayotgan hamda hayot atalmish ning barcha yo'nalishlarini o'z domiga chuqurroq tortayotgan globallasuv jarayonidir.

Keyingi yillarda dunyoning qator mamlakatlarida ana shu masalaning turli jihat lariga bag'ishlangan yuzlab hatto minglab tadqiqotlar elon qilindi. Bundan tashqari taraqqiy etgan G'arb davlatlaridan tortib endigina rivojlanish yo'liga

qadam qo'ygan davlatlarga ham ushbu masalani tadbiq etishga ixtisoslashgan ilmiy markazlar faoliyatini ham yo'lga qo'ydilar. Bu masala dunyoni nufuzli tashkilotlari rahbarlari nutuqlari dan ham alohida o'rin egallayapti. Xususan BMT, EI, YUNESKO, NATO kabi turli manfaatlarini ko'zlovchi tashkilotlar ham mazkur masalaga oid qator hujjatlarni elon qilmoqdalar. Shu o'rinda bir haqli savol tug'iladi. Nega bu jarayon amaliyotdan yiroq bo'lgan nazariyotchilarni dunyoning ko'zga ko'ringan amaliyotchilarining ham halova tini o'g'irlab qo'ydi? Aytish joiz: butun insoniyat hayotiga misli ko'rilmagan darajada o'z garishlar olib kelishi mumkinligi, ta'ir joiz bo'lsa, hozirning o'zidayoq shunday o'zgarishlarga qodirligi bilan ham globallashuv jarayoni hech kimni befarq qoldirmayapti.

To'g'ri dastlab bu jarayonlar tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlarda globallashuv barcha halqlar uchun faqat ijobiy o'zgarishlar olib keladigan imkoniyat sifatida turli jamiyatlarning bir-biriga yaqinlashuvini tamihlab beradigan, xalqlarning ilm-fan va iqtisodiyotning traqqiyot mahsullaridan barobar foydalanish uchun sharoit yaratadigan jarayon sifatida baholangan edi. Bunday soda yondashuv sabablarini anglash uchun, eng avvalo, ushbu jarayonni u bilan bir davrda dunyoni qamrab olgan boshqa bir muhim jarayon bilan birga tahlil etsakgina, anglab yetishimiz mumkin bo'ladi. Aniqrog'i – globallashuv jarayonlarining intensivlashuvi davri bir-biriga qarama-qarshi bo'gan ikki tizim o'rtasidagi ziddiyatning yo'qolishi davriga to'g'ri kelgan bo'lib, “endilikda dunyo mamlakatlarining yagona demokratik qadriyatlar doirasida birlashuviga halaqit berib kelgan to'siqlar yo'qoldi, bundan buyon barcha davlatlar zamonaviy sivilizatsiya, bunda dunyoning rivojlangan davlatlari boshqalarga birtodarlik qo'lini cho'zib, ularni o'z bag'riga tortadilar” qabilidagi havoli qarashlar tufayli ham globallashuv jarayoni bu orzu-umidlarni ro'yobga chiqarish yo'li, kerak bo'lsa, vosita sifatida qabul qilina bishlagan edi. Aynan aa shunday bir paytda G'arbning yirik faylasuflari dan biri F. Fukuyamaning kata shov-shuvlarga sabab bo'lgan “Tarix intiqosi” asari paydo bo'ldi. Unda go'yo ikki o'zaro muholif tizim o'rtasidagi qarama-qarshiliklarning yakun topishi, ziddiyatlarga asoslangan eski tarixning intihosi va insoniyat hayotida birodarlik va o'zaro yordamga asoslangan

yangi tarixning boshlanishi to'g'risida gi qarashlar ilgari surilib,asar yuqoridagidek chaqiriqlarning ifodasiga aylandi,deyish mumkin.⁶

2. Globallashuv va hozirgi dunyoning mafkuraviy manzarasi.

Dunyoning mafkuraviy manzarasi tushunchasi.-Hozirgi davr - dunyo g'oyaviy qarama-qarshiliklar murakkab tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchliroq bo'lib borayotgan davrdir. Butun yer yuzi odamzod uchun yagona makon bo'lib pisoblanadi. Ammo tarixda mavjud chugaralarni o'zgartirish, muayyan hududlarni bosib olish uchun son-sannoqsiz urushlar bo'lgan. Bu jarayonda esa urush qurollari muntazam takomillashib borgan. Mazkur urushlar to XX asrgacha asosan ko'proq bir yo ikki davlat yoxud mintaqa o'rtasida bo'lgan. XX asrda ro'y bergan ikkita jahon urushida o'nlab davlatlar, bir necha qit'a mamlakatlari ishtirok etgan.

Xullas, urush qurollari takomilashib boravurdi. Bugungi kunda ular boshqa hududni bosib olish u yoqda tursin, balki butun yur sayyorasidagi hayotni bir necha marta yo'q qilib tashlashga yetadi. Insoniyat XX asr oxiriga kelib bir qator chegara bilmaydigan muammolarga duch keldi. Urush va tinchlik, ekologik falokatlar, ma'naviy qashshoqlik, narkobiznes, terrorizm kabi muammolar ana shular jumlasidandir.

XXI asr boshlariga kulib dunyo mamlakatlari o'rtasida o'zaro ta'sir shu qadar kuchayib kutdiki, bu jarayondan to'la ihotalanib olgan birorta ham davlat yo'q. Glo ballashuvning turli mamlakatlarga o'tkazayotgan ta'siri ham turlicha. Bu hol dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, axborot, ma'naviy salohiyatlari va siyosati qanday ekani bilan bog'liq.

Dunyoning mafkuraviy manzarasining tarixan o'zgaruvchan xarakteri-XX asr so'ngida ro'y burgan ulkan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, ikki qutbli dunyoning bar ham topishi natijasida nisbiy muvozanatning buzilishi jahonning mafkuraviy manzara sini tubdan o'zgartirib yubordi.

XX asrda dunyoda g'oyaviy qarama-qarshiliklar keskin va murakkab tus olgan davr bo'ldi. XX asr so'ngida ikki qutbli dunyoning barham topishi, nisbiy muvoza

1.Yoqubov B. Globallashuv davri muammolari. XXI asr 2007 y. 20 sentabr.

natning buzilishi natijasida jahondagi mafkuraviy manzaralar tubdan o'zgardi. Yurtboshimiz Islom Karimov ta'kidlaganiduk, "XX asr oxirida dunyoda jo'g'rofiy-siyosiy ahamiyati va ko'lami jihatidan noyob o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bu o'zgarishlar betakror. Ular nafaqat mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda vujudga kelgan qarashlar va ularning muxanizmlarini chuqur o'ylab ko'rishni, balki ko'p jihatdan qayta baholashni ham talab qiladi. "Sovuq urush" davrida xalqaro munosabatlarga asos bo'lgan ko'p qoidalar, tamoyillar va g'oyalarni tubdan qayta ko'rib chiqish talab qilinmoqda. Butun dunyo yaxlit va bir-biriga bog'liq tizim bo'lib bormoqda, unda o'zi – o'zidan qanoatlanishga va mahdudlikka o'rin yo'q. Bu hol hozirgi xalqaro munosabatlarni shakllantirganda, xalqaro tuzilmalar bilan o'zaro aloqalarda va ularning faoliyatida ishtirok utganda mutlaqo yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishni zarur qilib qo'ymoqda"¹.

Dumokratik qadriyatlar hamda inson hukuklari va urkinliklari ustuvorligiga asoslangan g'oyaviy qarashlar tizimining dunyo mafkuraviy manzarasida tutgan o'rni. XX asr oxiri va XXI asr boshlariga kulib kommunistik va sosialistik partiya ta'siridagi sotsializm lageri parchalandi. Dunyo mamlakatlari rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarga bo'lindi. Ana shu rivojlangan ba'zi mamlakatlar o'z milliy mustaqilligini qo'lga kiritgan, rivojlanayotgan mamlakatlarni, jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan bo'lib olishga urinmoqdalar. Bular quyidagi holatlarda ko'rinadi:

Dunyoni bo'lib olishga urinayotgan mafkuralarning shakllari:

1. Buyuk davlatchilik mafkurasi.
2. Diniy ekstrumistik mafkuralar.
3. Pansovutizm mafkurasi.
4. Panislomizm mafkurasi.
5. G'arb turmush tarzini ifodalagan mafkuralar.
6. Ameriqacha turmush tarzini ifodalagan mafkuralar.
7. Turli diniy sektolarning g'oyalarni ifodalovchi mafkuralar.

1. Karimov I.A. xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T. 6-T. "O'zbekiston" 1998 y. 240-241 betlar.

Shovinizm, uning tarixiy ildizlari. Shovinizm ba'zi ko'p sonli millatlarning nafaqat ko'p millatli impuriya doirasida, balki uni o'rab turgan jo'g'rofiy - siyosiy makonda ham o'zining mutloq hukmronligini o'rnatish uchun kurashda namoyon bo'ladi. Davlat etakchi mavqe (davlat)ga ega bo'lgan, o'z millatini oliy millat deb e'lon qilgan millat hukmron ekspleatator sinflarining ideologiyasi va siyosati bo'lgan buyuk davlatchilik shovinizm, shovinizm va millatchilikning bir turidir.

Buyuk davlatchilik shovinizmi - (Shovinizm - fran. burjua millatchiligining o'ta reaktion formasi). Shovinizm siyosati boshqa millat va xalqlarga nafrat va dushmanlikni avj oldirishga qaratilgan. Shovinizm go'yo to'laqonli bo'lmagan boshqa millatlar va irqalar ustidan hukmronlik qilishga da'vat etilgan bir millatning alohidaligini (mumtozligini) targ'ib etadi.

Buyuk davlatchilik shovinizmi boshqa millatlar va mamlakatlar bilan o'zaro madaniyatli hamkorlik qilishga tayyor umaslikdan kelib chiqadi. Uning ifodachilari harbiy imperiyalardir. Bu imperiyalarning iqtisodiyoti bosib olingan hududlarni eksplatatsiya qilar va hatto ularning hayotiy manbalari hisobiga yashar edi. Ayni chog'da bo'ysundirilgan xalqlarga ularga madaniy jihatdan va umuman milliy jihatdan norasoligi haqidagi halokatli g'oya singdirilar edi.

Buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik bir-birini to'ldiradi, bular o'z davlati manfaatini ilgari surib, milliy qadriyatlarni tayyorlashda, milliy madaniyatlar va ma'naviy qadriyatlarni oyoq osti qilishda, avtolitar tuzum o'rnatishda, boshqa mamlakat xalqlarini itoatgo'y qilib saqlab turishda, hozir esa sobiq Ittifoqni tiklash uchun qilayotgan harakatida, o'z ta'sir doirasini boshqa mustaqil davlatlarda saqlab qolish uchun intilishda, millatlar o'rtasida o'zaro ishonchsizlik tug'dirishda, xalqaro-huquqiy me'yorlarni inkor etishda, tashqi iqtisodiy aloqalarni to'sishda, yangi mustamlakachilikni zo'rlab qabul qildirish harakatida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Pruzidunt Islom Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida..." asarida shovinizmga "Shovinizm ba'zi ko'p sonli millatlarning nafaqat ko'p millatli imperiya doirasida, balki uni o'rab turgan jo'g'rofiy-siyosiy makonda ham o'zining mutloq hukmronligini o'rnatish uchun kurashida namoyon bo'ladi" deb

ta'rif bergan (Karimov I.A. Asarlar. T.6. 65-bet). Bunday davlatlarga ko'proq iqtisodiy jihatdan zaif, ichki beqaror davlatlar nishon bo'ladi.

Mustaqil O'zbekiston uchun bugungi kunda buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik tug'dirayotgan tahdidlarning rual xavfi quyidagilardan iborat:

- 1) Xalqaro, davlatlararo va elatlararo qarama-qarshilikni keltirib chiqarish.
- 2) Xalqaro-huquqiy va ichki davlat suverenitetimizni ro'yobga chiqarishga qarshilik ko'rsatish.
- 3) O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalarini chugaralashga, ularni teng huquqli bo'lmagan sharoitga solib qo'yishga urinish.
- 4) Mamlakatimiz aholisiga uluktron, radio-axborot vositalari orqali mafkuraviy yo'l bilan tazyiq o'tkazish, jahon afkor ommasida O'zbekiston haqida noto'g'ri tasavvur tug'dirishga intilish.
- 5) Millatlar o'rtasidagi o'zaro ishonchsizlikni keltirib chiqarish, millatlararo munosabatlarni keskinlashtirish.
- 6) Yangi mustamlakachilik va yangi imperiyachilik yondashuvlarini zo'rlab qabul qildirish, hamma sohalardagi o'zaro manfaatli va teng huquqli hamkorlikni sekinlash tirish xavfi.

Aqidaparastlik: asosiy shakllari, keltirib chikaruvchi omillar, tarqalishining oldini olish yo'llari. Kishilar ongi va qalbiga ma'lum mafkuraviy tazyiqlar asosida singdirilib, e'tiqod darajasiga ko'tarilgan vayronkor mafkuralardan biri – aqidaparastlik. U o'z xususiyatini ikkita shaklda namoyon qiladi: Aqidaning dunyoviy shakli (shovinizm, atuizm, kommunistizm); aqidaning diniy shakli (inkvizitsiya, vahhobiylilik, Hizbuttahrir, Hizbulloh, Al-Qoida va b.) aqidalarni zamon va makondan ajratgan hol da anglab, ularni (o'zgartirib bo'lmas) tushunchalar dub biluvchilar aqidaparastlar deb yuritiladi. Aqidaparastlarning shakllanishi va qaror topishi barcha diniy tashkilotlar va ularning ruhoniylari faoliyati bilan tarixan bog'liq bo'lganligi uchun u faqat diniy ta'limotlarga xos hodisa sifatida talqin etiladi.

Diniy aqidaparastlik, islom fundamantalizmi – islomning fundamental prinsip-

larini tiklash, islom vujudga kelgan dastlabki shart-sharoitlarga qaytish shiori ostida harakat qilishga da'vat utuvchi ruksion g'oyalardan biridir. Bundan tashqari, bu g'oya tarafdorlari xalifalik bayrog'i ostida birlashishni noislomiy dunyoga qarshi turish maqsadi bilan bog'lashlarini ham ta'kidlash joizdir. Bunday yondoshuv o'ta xavfli ekanligi hammamizga ayondir. Bunday ruksion g'oya insoniyatning diniy asosda qarama-qarshi qutblarga bo'linib ketishiga, ba'zan "sivilizasiyalar to'qna- shuvi" deb ataladigan hodisaning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Ushbu g'oyani qo'llab-quvvatlovchi yana bir ruksion oqim diniy ekstrumizmdir. Dinni niqob qilib hokimiyatga intilish, g'arazli niyatlari yo'lida har qanday qabihliklardan tap tortmaslik xususiyati ushbu g'oya tarafdorlariga xosdir.

- 1.Xalifalikni tiklash.
- 2.Islom modurnizmi.
- 3.Islom tradisionalizmi.
- 4.Islom fundamentalizmi.

Bu oqimlar diniy va dunyoviy hokimiyatni o'zida mujassamlashtirgan xalifa rahbarligidagi yagona musulmon davlatiga birlashtirishni ko'zlagan, sog'lom mantiq qa mutlaqo zid da'vodan iborat. XX asr 80-yillarida "Musulmon birodarlari" tashkilo tining fraksiyalarga bo'linib ketishi natijasida quyidagi diniy tashkilot va partiyalar ham yuzaga kelgan:

- 1) Islom ozodlik partiyasi
- 2) Sosial islohotlar jamiyati
- 3) At - Takfir val - Hijra
- 4) Junud Alloh
- 5) Jihod
- 6) Hizbulloh kabi.

Bundan boshqa yana quyidagi diniy oqimlar ham mavjud:

- 7) Vahhobiylik (XVIII asrda paydo bo'lgan).
- 8) Ahmadiya (1X asrda Pokistonda).
- 9) Hizb-at-tahrir (1953 yilda Isroilda - tushuntirish, harakat, to'ntarish).

- 10) Tablig'chilar - etkazish ma'no. XX asr Hindistonda, islomga chorlash.
- 11) Akromiyalar - 1997-1999 yillarda Farg'onada va 2005 yil 12-13 mayda Andijon oqim sardoriga bo'ysunish (Akrom Yo'ldoshev boshchiligidagi).
- 12) Nurchilar - Turkiyada, hokimiyat uchun kurashga chorlash.
- 13) Tavba-ekstremistik ruhdagi harakat. Bokuda va O'zbekistonga (1991 yil).
- 14) Islom uyg'onish partiyasi - 1989-1991 yillarda Tojikistonda.
- 15) Islom lashkarlari - 1990-1992 yillarda Namanganda "Otavali-xon" masjidida.
- 16) Adolat - 1990-1992 yillarda Namanganda paydo bo'ldi.

1991 yil 14 iyunda O'zbekiston Oliy Kengashining 12 - chaqiriq 5-sessiyasida "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonuni qabul qilingan edi. "Vijdon urkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunning yangi tahriri 1998-yil 1-mayda Oliy Majlisning II-sessiyasida qabul qilindi.

Umuman, Islom ekstrumizmi, fundamentalizmi tomonidan O'zbekiston xavf sizligiga solinayotgan tahdidlar quyidagilardan iborat:

1) Dindor musulmonlarning islohotchi davlatga ishonchini yo'qotish, demokra tik jamiyatni obro'sizlantirish, barqarorlikni va milliy totuvlikni buzishga urinmoqda.

2) Asossiz da'vatlar orqali yoshlarni mutelik, erksizlik holiga tushirib qo'yish, aqliga va taqdiriga hukmron bo'lish.

3) Qarama-qarshilikni keltirib chiqarib mamlakatni parchalab tashlash.

4) Din uchun kurashuvchi jangorilarning yangi avlodini vujudga keltirish.

5) Musulmon va nomusulmon mamlakatlar orasida O'zbekiston obro'sini to'kish, obro'sizlantirish.

6) Islom va boshqa sivilizasiyalar o'rtasida ziddiyatlarni keltirib chiqarish.

7) Omma ongida soxta tasavvurlarni qaror toptirish.

"Bu radikal guruhlarining barchasini birlashtirib turadigan umumiy bir xususiyat bor. Ular, mohiyat u'tiboriga ko'ra, biz uchun mutlaqo yot bo'lgan bir maqsadni - diniy davlat, musulmon xalifaligini o'rnatishni targ'ib qilmoqda"⁷.

1. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T. "O'zbekiston" 2005 y. 53-bet.

Dunyoning mafkuraviy manzarasida etnik zaminda shakllangan g'oyaviy karash larning o'rni, ularning tarixiy ildizlari va namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari. Mafkuraviy jarayonlarning globallasuvi - g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlarining kengayishi oqibatida unga yer yuzining barcha mintaqalarida mafkuraviy kurash umumbashariy miqyos kasb utganini ifodalovchi tushuncha. Insoniyat tarixining hozirgi bosqichi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, madaniy hayotning barcha sohalarida xalqaro munosabatlarning integrasiyalashuvi va intensivlashuvi bilan xarakterlanadi. Xususan, aloqa vositalarining rivojlanishi, ularning kompyuterlash tirilishi, elektron pochta, internet, kosmik tularadio aloqa tizimlarining texnik-texnologik vositalari kuchayib ketishi bilan axborot almashuv, binobarin, g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlari ham tobora kengaymoqda. Mafkuraviy jarayonlarning global lashuvida bir-biridan tubdan farq qiladigan ikki yo'nalish, tendensiya namoyon bo'lmoqda. Birinchidan, insoniyat sivilizatsiyasi tarixida urishgan har qanday moddiy va ma'naviy qadriyatlarining umuminsoniy jihatlari tarixiy makon doirasidan chiqib baynalminallashib, universallashtirib bormoqda. Boshqacha aytganda, milliylik va umuminsoniylik tamoyillarining integrasiyalashuv jarayoni kechmoqda. Ikkinchidan millatlar va davlatlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naniy-madaniy rivojlanishi dagi beqarorlik, ular manfaatlaridagi o'ziga xoslikni mutloqlashtirish insoniyatga, shu jumladan, o'z millatining kelajagiga xavf tug'diradigan salbiy hodisalarning mafkura lashgan holda globallasuviga olib kelmoqda. Bu xalqaro terrorizm, ekstremizm, fundamentalizm va narokobiznes hodisalarida namoyon bo'lmoqda. Biron-bir hudud yoki mamlakatda paydo bo'layotgan g'oyalar tez fursatda butun jahonga yoyilmoqda. Natijada odamzod ma'lum bir davlatlar va siyosiy kuchlarning manfaatlariga xizmat qiladigan, olis - yaqin manbalardan tarqaladigan, turli mafkuraviy markazlarning bosimini doimiy ravishda sezib yashamoqda. Bu jarayonning eng muhim xususiyatlaridan biri - turli mamlakatlarni mafkuraviy zabt etish g'oyat katta iqtisodiy manfaatlar bilan chirmashib ketganidir. Mafkuraviy globallasuv saviyasi past audio va viduokassetalar, axloqsizlik, tubanlik va yovuzlikni targ'ib qiladigan "san'at

asarlari” ning ham keng tarqalishiga sabab bo’l moqda. G’oyaviy –mafkuraviy tazyiq va tajovuzlarning oldini olish uchun esa har bir millat, davlat o’zining g’oyaviy-mafkuraviy daxlsizligini ta’minlaydigan chora-tadbirlarni ko’rish zarur bo’lib qolmoqda. Ana shunday tadbirlar izchil amalga oshirilganda mafkuraviy jarayonlarning glaballashuvi g’oyaviy qarashlardagi muayyan farqlardan qat’iy nazar, umuminsoniy qadriyatlar, tinchlik g’oyalariga sodiqlikning kamol topishiga sharoit yaratadi, umum insoniy sivilizasiya taraqqiyotining muhim omiliga aylanadi.

Irkchilik mafkurasining mohiyati – “Rasizm” so’zi “rasa” (irq) atamasidan kelib chiqqan. Bu atama 17 asrdan boshlab Uvropada “insoniyat nasli”ni turli irqiy guruh lar, jumladan “oq”, “qora” va “sariq” irqqa ajratish uchun qo’llana boshladi. odamlar o’rtasidagi ijtimoiy tungsizlik, boskinchilik, zo’rovonlik va urushlarni kishilarning turli irklariga mansubligi bilan oqlashga xizmat qiluvchi g’ayrimilliy ta’limot. Irkchilik insonlarning ijtimoiy mohiyatini ularning biologik – irqiy (ko’zi, sochi va terisining rangi, bosh va yuz tuzilishi kabi tashki, ikkinchi darajali jismoniy) belgilar bilan bog’lab, ularni oliy va quyi, bekamu-ko’st va noraso irklarga ajratadilar.Unga

ko’ra, oily irklar xo’jayinlik qilishi,qolganlari ularga xizmat qilishi, bo’ysunishi shart.

Irkchilik ta’limoti boshka xalklarga nisbatan boskinchilik, talonchilik, mustam lakachilik siyosatini asoslashga harakat qiladi. Masalan, fashizm mafkurasini va siyosati irkchilik ta’limoti va amaliyoti bilan yakindan bog’likdir. Irkchilik ta’limoti bilan kurollangan fashistlar Germaniyasi “oriylar irki” hukmronligini o’rnatish maksadida jahon urushini boshlagani bunga yakkol misoldir.

Hozirgi davrda uning qaytadan jonlanishini keltirib chiqarayotgan omillarga – e’tibor qaratsak, hozir ham reaktсион mafkuraga asoslangan kayfiyatdagi guruhlar, ularning nazariyotchilari irkchilik g’oyalarini targ’ib utib, “qolok” xalklarning go’yo mustaqil rivojlanishga ruhiy tayyor umasliklarini da’vo qilmokdalar. Dunyoning turli mintakalaridagi bunday karashlar va harakatlarni xalklar ozodligini bo’g’ishga, ular ustidan hukmronlik o’rnatishga intilish deb tushunish

mumkin. Dunyoda yevropalik, mo'g'ul va negrlik belgilariga qarab ajratiladigan uch asosiy irk bor. Tarixiy taraqqiyo davomida irklarning aralashuvi, irkiy bulgilarning o'zgarishi sodir bo'lib kelgan va u hozir ham davom etmokda. Barcha irklar madaniy taraqqiyotga birdek qobiliyatlidir. Irkiy kamsitish ilmiy jihatdan o'rinsizdir. Irqchilik insoniyatga qarshi jinoyatdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida barcha irqlar va millatlarning teng huquqliligi belgilab ko'yilgan. Bu qoida jahon hamjamiyatining xalqaro huquq me'yorlariga javob beradi va irqchilikni inkor etadi.

Dunyoning mafkuraviy manzarasi rivojlanishining istiqbollari. Hozirgi zamon g'oyaviy-mafkuraviy geosiyosatini demokratik va gumanistik tamoyillar asosida tashkil qilish dolzarb muammolardan biriga aylanib bormoqda. Yer kurrasini asrab qolish, insoniyatning kelajak hayotini saqlab qolish, barcha xalqlarning ozod va teng yashashi uchun bevosita demokratik va gumanistik tamoyillar asosidagi g'oyalarga amal qilish tarixiy zaruriyatdir. Biz demokratik va gumanistik tamoyillar duganda nimani tushunamiz? Bu xalqlarning erkinligi, ozodligi, hur fikrliligi, qonun oldida tengligi, inson hayotini hamma narsadan ustunligi, inson qadr-qimmatining yuqoriligi, barcha olib borilayotgan jarayonlarning inson hayotini yaxshilashga qaratilganligi demakdir.

Buning uchun har bir mamlakat yoki davlatning mustaqilligini tan olish, millati, dini va qadriyatlarini hurmatlash, ichki ishlariga aralashmaslik, tashqi siyosatda o'zaro manfaatdorlik, ijtimoiy, siyosiy va madaniy hamkorlikda o'zaro hurmat kabi u muminsoniy qadriyatlarga rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mamlakatda ilg'or g'oyalar, mafkuralar qancha ko'p bo'lsa, ya'ni mafkuraviy plyuralizm hukmron bo'lsa taraqqiyotning samarali yo'lini tanlab olish uchun imkoniyat shunchalik keng bo'ladi. Fikriy kurash mafkuralarning ma'no va mazmun jihatidan boyishiga, bir-birini to'ldirishiga xizmat qiladi.